

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari.....	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinboyeva	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550



UO‘K: 373.3.016:74+811.161.1

FONETIKANI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI SHAKLLANTIRISH**ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ПУТЁМ ОБУЧЕНИЯ ФОНЕТИКЕ****FORMING STUDENTS’ SPEECH BY TEACHING PHONETICS****Xoldarova Irodaxon Valijonovna¹**¹Farg‘ona davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doctori (PhD), dotsent**Erg‘oziyeva Xurshidaxon Abdusalom qizi²**²Qo‘shqatpa tumani 43-maktab oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim olishi uchun zarur bo‘lgan darsliklarning yaratilishi hamda O‘zbekistonda o‘qitilayotgan o‘zbek, qirg‘iz, tojik, qoraqolpoq, qozoq, turkman va rus tilidagi alifbe kitobining qiyosiy tahlili asosida savod o‘rgatish jarayoni davomida fonetik bilimlarini shakllantirishga oid bajariladigan ishlarning mazmuni va ko‘zlangan natijalarga erishish usullarining yakuniy xulosalari haqida so‘z yuritilgan.

Аннотация

В данной статье на основе сравнительного анализа алфавитной книги узбекского, киргизского, таджикского, караколпакского, казахского, туркменского и русского языков, изучаемых в Узбекистане, а также содержания проводимой работы по формированию фонетических знаний в процессе обучения грамоте, и итоговых выводов методов достижения намеченных результатов.

Abstract

This article is based on a comparative analysis of the alphabetical book of Uzbek, Kyrgyz, Tajik, Karakalpak, Kazakh, Turkmen and Russian languages studied in Uzbekistan, as well as the content of the ongoing work on the formation of phonetic knowledge in the process of literacy training, and the final conclusions of methods to achieve the intended results.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, MO‘D, fonetika, alifbe, unli va undosh tovushlar, fonema, qozoq tili, qirg‘iz tili, qoraqolpoq tili, turkman tili, tojik tili, rus tili, o‘zbek tili tovushlar tizimi, ohangdoshlik, undoshlar garmoniyasi.

Ключевые слова: Начальное образование, Национальная учебная программа, фонетика, алфавит, гласные и согласные, фонемы, казахский язык, кыргызский язык, каракалпакский язык, туркменский язык, таджикский язык, русский язык, звуковой строй узбекского языка, гармония, гармонизм согласных.

Key words: Elementary education, NC (national curriculum), phonetics, alphabet, vowels and consonants, phonemes, Kazakh, Kyrgyz, Karakalpak, Turkmen, Tajik, Russian, Uzbek sounds system, harmony, harmony of consonants.

KIRISH

Respublikamizda yuz berayotgan o‘zgarishlar yosh avlodning har tomonlama mukammal bilimga ega bo‘lishini talab etadi. Ta‘lim tizimidagi islohotlar munosabati bilan boshlang‘ich ta‘lim oldiga qo‘yilgan talablar ham zamon bilan hamnafas o‘zgarib bormoqda. Bunga misol tariqasida yurtimizdagi ta‘lim sohasida qabul qilinayotgan qonun va qarorlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limini davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-qarori orqali O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimini qayta shakllantirish va xalq ta‘limini jahon andozalari darajasida tashkil etishga qaratilgan vazifalar keltirilgan. 2022-yil 11-mayda “2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” prezident farmoni bilan tasdiqlandi[1].

Milliy o‘quv dasturi - har bir sinf bosqichi yakunida o‘quvchilardan kutiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o‘tishni va o‘quvchi qanday natijalarni qo‘lga kiritishi kerakligi va

TILSHUNOSLIK

baholash jarayonini tushuntirishda yo'nalish beruvchi hujjatdir. Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rin tutadi:

- izchillik, uzviylik, uzluksizlik,
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan, texnika va ilg'or texnologiyalar rivojining istiqbollari, xalqaro ta'lim standartlari darajasining mavjud holatini inobatga olish asosida, ta'lim mazmunini jahon ta'lim standartlariga moslashtirish;

- ishlab chiqarish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.

2020 yilda yaratilishi boshlangan milliy o'quv dasturlarida XXI asr ehtiyojlaridan kelib chiqib o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikmalar belgilangan.

Dastur tarkibi 6 ta qismdan iborat:

- umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;
- umum ta'lim fanlarining konsepsiyalari;
- umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi;
- umum ta'lim fanlarining o'quv dasturlari;
- umum ta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi;
- baholash tizimi.

Bu komponentlarning atiga 3 tasigina eski Davlat ta'lim standartlari (DTS)da mavjud bo'lgan. Yangilanayotgan Milliy dasturda esa ular mukammallashtirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda. Bu esa ta'lim sohasini samarali tarzda o'zgarib borishiga olib kelmoqda. Buning natijasi darsliklarimizda yaqqol nomoyon bo'lmoqda

Alifbe — dastlabki savod beradigan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Alifbe bosma, yozma harflar va ular ifodalaydigan nutq tovushlari, ularning yozilishini o'zlashtirish, sodda bo'g'in va so'zlarni qo'shib o'qishga o'rganish va o'qilayotgan narsani to'g'ri tushunish hamda sodda so'z va gaplarni yozishga o'rganishga yordam beradi. Turkiston rus-tuzem maktablarining hamda yangi usuldagi maktablarning paydo bo'lishi bilan alifbe darsligi yuzaga keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Saidrasul Saidazizov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mulla Rustambek ibn Yusufbek, Shokirjon Rahimiy, F. Erg'oziyev va A. Yo'ldoshevning taqdiqotlarida Alifbe darsligining yaratilishi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. 1902-yilda rus-tuzem maktablarining o'zbek sinflari uchun birinchi o'zbek alifbesi — „Ustodi avval“ nashr etildi. Bu alifbening muallifi Saidrasul Saidazizov. Kitob 1917-yilgacha 17-marta nashr etilgan. Shu yillarda Munavvarqori Abdurashidxonovning „Adibi avval“ (o'zbek maktablari uchun birinchi alifbe), Mulla Rustambek ibn Yusufbekning „Ta'limi avval“, P. Bidanovning „Sullami avval“, A. Avloniyning „Birinchi muallim“, A. Ibodiyevning „Tahsil ul-alifbo“, M. Faxriddinovning „Rahbari avval“ kabi alifbelar nashr qilingan. Keyinchalik Shokirjon Rahimiy yaratgan „Sovg'a“ darsligi nashr qilingan. Shuningdek, M. Qodirov va boshqalarning „Kattalarga o'qish“ (1920), F. Erg'oziyev va A. Yo'ldoshevning „Alifbe“ (1936) kitoblari bosilib chiqqan. 1938-yildan Oqilxon Sharafiddinov tuzgan alifbe nashr qilindi. Mazkur alifbe Q. Abdullayeva hammuallifligida qayta ishlanib nashr etildi va o'zbek maktablarida o'quv qo'llanmasi vazifasini bajardi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabrda „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida“ Qonuni qabul qilingach, bir qancha alifbelar tayyorlandi. Xususan, 1996-97 yillarda Oqilxon Sharafiddinov, Q. Abdullayeva va boshqalarning „Alifbe“ („Shodlik“), T. G'afforova, E. Shodmonov, R. Eshturdiyevaning „Alifbe“ („Savod“), katta yoshdagilar uchun Y. Abdullayevning „Hamrohim“, „Sovg'a“, Y. Abdullayev, Sh. Yo'ldoshevaning „Yangi alifbo va imlo“ o'quv qo'llanmalari chop etilgan[2].

Respublika ta'lim markazdan olingan malumotlarga qaraydigan bo'lsak, Milliy o'quv dasturi 22 fan doirasida har bir fanga alohida dastur ishlab chiqish rejalashtirilgan. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun 246 nafar ekspert, shu jumladan, maktab o'qituvchilari, metodistlar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda UNICEF va USAID tashkilotlaridan xalqaro ekspertlar jalb qilingan. 1-2 – sinflar uchun 2021-2022-o'quv yilida 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o'quvchi mashq daftarlari va pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalar joriy qilindi[3]. Milliy o'quv dasturini maktablarga 2025 yilgacha bosqichma-bosqich joriy qilish rejalashtirilgan.

Milliy o'quv dasturida XXI asr ko'nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilinmoqda. Shu sababli 2022-2023- yillarda Milliy o'quv dasturi asosida 7 xil tilda Alifbe darsligi ishlab chiqilgan. O'zbek, qirg'iz, qozoq, qorqalpoq, tojik, turkman, rus tillarida

o'qitiladigan maktablar uchun Alifbe darsliklarimiz mavjud. Bu darsliklar O'zbekistondagi maktablar bo'lgani uchun uning tuzilishi Milliy o'quv dasturidan chetga chiqmagan, o'zbek milliy qadriyatlarini uyg'unlashtirgan holda yaratilgan. Alifbe darsligining asosi tovush va harf hisoblanganligi barchamizga ma'lum. Tovush va harflarni o'rganadigan bo'lim esa Fonetikadir. O'zbekistonda o'qitiladigan qozoq, qirg'iz, rus, tojik, qoraqolpoq, turkman tilidagi Alifbodagi tovush- harflar shu tildagi davlatlarda o'qitiladigan tovush- harflardan qisman farq qiladi. Ba'zi tovush harflar o'zbek alifbosiga uyg'unlashgan holdaligiga darslikni tahlil qilish mobaynida duch keldi. Shu tildagi davlatni fonetikani o'qitilishi bilan O'zbekistondagi o'sha tildagi tovushlarning o'rgatilishida ham sezilarli farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpoq tili - turkiy tillar qatoriga kiradi. Qoraqalpoq tili - O'zbekiston Respublikasining tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining rasmiy tilidir. Qoraqalpoq tili - turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub tillardan. Qoraqalpoq tilining o'ziga xos belgilari: unlilar ohangdoshligi — singarmonizm mavjudmas, Atlarshimz (otlarimiz). kunler - (kunlar); umumturkiy ch undoshi sh bilan; sh esa s undoshi bilan almashadi, mas, qash (qoch), tas (tosh), bas (bosh). Ayrim so'zlarda g' undoshi o'rnida v; g undoshi o'rnida y ishlatiladi, mas, tav (tog'), tiy (teg) va boshqa. Qoraqalpog'iston Respublikasida quyidagi 34 harfdan (jumladan 6 ta harf usti belgisi bilan) iborat lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosi yaratilgan.¹⁸ Qoraqalpoq tili 1940-yildan rus grafikasi asosidagi yozuv joriy etilgan. 1999-yildan lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tish ishlari amalga oshirilmoqda[4].

Turkman tili g'arbiy o'g'uz kabila (urug') tillari negizida shakllangan, lekin rivojlanish jarayonida qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos xususiyatlarga ham ega bo'lgan. Turkman tilining asosiy o'ziga xos belgilari: birlamchi (qad.) cho'ziq unlilarning mavjudligi, tishlararo talaffuz qilinadigan s va z undoshlarining (boshqa turkiy tillardagi odatiy s va z o'rniga) mavjudligi, lab undoshlari garmoniyasining rivojlanganligi. Hozirgi turkman adabiy tili tekin (teke) dialektining axial so'zi asosida shakllangan. Turkman tilidagi 39 fonemaning 18 ta jarangli, 21 ta jarangsiz harflar. Turkman tili 1940-yili kirill alifbosiga almashtirgan. 1994-yili qaytadan lotin alifbosiga almashdi[5].

Qirg'iz tili - [turkiy tillarning](#) qirg'iz-qipchoq guruhiga mansub tillardan, Qirg'iziston Respublikasining davlat tili. Qirg'iz tilining fonetik xususiyatlari esa, Alifbosida 32 ta har mavjud bo'lib, 8 ta qisqa unli fonemaga qarama-qarshi 8 ta cho'ziq unlining mavjudligi, singarmonizmning izchil saqlanishi. so'z boshida j (jon so'zidagi) undoshining (boshqa turkiy tillardi y yoki j) qo'llanishi. Qirg'iz milliy yozuvi dastlab, 1924-yilda arab alifbosi asosida, 1926-yildan lotin grafikasi asosida yaratilgan; 1940-yildan esa rus grafikasi asosidagi qirg'iz yozuvi joriy etilgan[6].

Tojik tili - hindyevropa oilasidagi eroniy tillar guruhining janubiy-g'arbiy guruhchasiga mansub til. Fonetik tizimida 6 unli va 24 undosh fonema bor. Urg'u dinamik xususiyatga ega, ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi[7].

Rus tilidagi - barcha tovushlar unli va undoshlarga bo'linadi. 33 harfdan iborat: ularning 21 tasi undosh tovushlarni (b, p, v, f, d, t, z, s, j, sh, ch, s, sh, g, k, x, m, n, l, r), 10 ta harf unlilarni - a, e, o, i, i, u sof unlilarni va "y+unli" (ya, ye, yo, yu) birikmalarini ifodalaydi. Y harfi "bo'g'in hosil qilmaydigan l" ni yoki j undoshini bildirsa, ', - ayrish va yumshatish belgilari alohida tovushni bildirmaydi. So'zdagi unli tovushga urg'u tushishi yoki tushmasligiga qarab barcha unli tovushlar urg'uli (to'liq talaffuzi bilan ajralib turadigan) va urg'usiz (qisqartirilgan) tovushlarga bo'linadi. Undosh tovushlar nutq tovushlari bo'lib, talaffuz paytida havo oqimi turli to'siqlarga duch keladi, ular shovqin yoki ovoz va shovqindan iborat[8].

Qozoq tili-[turkiy tillarning](#) qipchoq guruhiga mansub. Qozoq tilining fonetik xususiyatlari: Qozoq tili uchun lotin grafikasi asosidagi yangi alifbo ishlab chiqayotgan mutaxassislar 25 harfdan iborat loyiha taklif qildi. Qozoq kirillchasi 42 harfdan iborat bo'lib, 9 unli fonemaga ega, unlilar ohangdoshligi (lab singarmonizmi) va undoshlar assimilyatsiyasi mavjud, so'z urg'usi, asosan, dinamik xususiyatga ega. Bo'g'inlar 3 turga ajraladi: ochiq, yarim yopiq va yopiq. Yozuvi 1930-yilgacha arab grafikasi asosida, 1930-1940 yillarda lotin grafikasi asosida bo'lgan. 1940-yildan rus grafikasi asosidagi yozuv joriy etilgan[9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida izohi bildirilgan tillar o'z davlatining alifbosi bo'yicha izohlangan. O'zbekistonda bu tillarda o'qitiladigan maktablar esa, bundan turlicha farqlanadi. Ba'zi o'xshash tomonlari ham bor,

TILSHUNOSLIK

lekin bizni yurtimizda o'qitilayotgani sababli tovush va harflarning o'qitilishi va o'rgatish metodikasida ham sezirarli farqlar kuzatiladi.

2.1- jadvalda O'zbekistonda o'qitiladigan 7 tildagi Alifbe darsligining harflar ketma ketligining umumiy holatini ko'rishimiz mumkin. Shunga ko'ra:

- o'zbek tilida 29 ta harf shundan 6 tasi unli, 30 ta tovush, bitta tutuq belgisi mavjud.
- turkman tili alifbesida 30 ta harf- tovush bo'lib shundan 9 tasi unli tovushlardan iborat.

Turkman alifbosi lotin yozuviga asoslangan bo'lib, o'zbek alifbosidagi a,o,e,i,u unlilarining yozilishi va nomi bir xil, o'qitish metodikasi esa quyidagi tovushlar, yani ä, ö, ü tovushi ikki xil ifodalanganligi uchun o'rgatilish jarayoni bir biridan farq qiladi.

Turkman tili alifbesidagi harflar

Çekimliler	A	O	E	Y	I	Ä	Ö	U	Ü												
Çekimsizler	K	T	M	L	B	R	Ý	N	P	D	H	Z	J	G	S	Ş	Ň	Ç	W	Ž	F

1.2 1-rasm

Turkman tili alifbe darsligida yuqoridagidek jadval berilgan bo'lib, bu jadval kitobning tovush o'rganiladigan sahifasidan boshlab har yangi tovush bilan yanishtirilganda to'lib boraveradi. Bu bilan fonetika bo'limining muhim xususiyati ya'ni tovushlarning unli undoshligini ko'rsatib beradi. O'quvchi ko'z xotirasiga tayangan holda va ilmiy ta'riflarni bilib, unli va undosh tovushlarini o'rganib eslab qoladilar.

2.1- jadval

Harflar joylashuvi (alifbe kitobi tartibida)	O'zbekistonda o'qitiladigan alifbe kitoblar						
	O'zbek alifbesi (lotin yozuvida)	Turkman alifbesi (lotin yozuvida)	Rus alifbesi (krill yozuvida)	Qoraqolp oq alifbesi (lotin yozuvida)	Tojik alifbesi (krill yozuvida)	Qozoq alifbesi (krill yozuvida)	Qirg'iz alifbesi (krill yozuvida)
1	O	a	a	A	O	A	a
2	N	o	o	N	A	Л	п
3	A	k	и	T	Л	О	о
4	I	t	у	O	H	У	у
5	M	m	ы	W	M	Й	т
6	T	l	н	L	P	H	э
7	L	b	т	B	Ш	Ш	л
8	B	r	к	Q	X	С	м
9	K	Ý	с	R	Ҳ	М	к
10	R	e	л	S	У	F	н
11	o'	n	п	I	Ū	P	аа
12	D	y	р	Y	C	П	б
13	U	p	в	M	Д	Д	и
14	Y	i	e	D	З	Қ	й
15	E	d	м	U	И	Ы	р
16	G	ä	з	Z	Й	Б	оо
17	Ng	ö	д	g'	K	Ж	ы
18	S	h	б	E	Қ	З	с
19	H	z	г	P	B	У	уу
20	Sh	j	ь	I	T	H	д
21	P	g	я	K	П	И	ж
22	Q	s	ч	J	Г	E	уу

23	Ch	ş	ш	A	F	K	г
24	J	ñ	ж	H	Б	І	о
25	g'	u	ё	o'	E	O	з
26	Z	ü	й	u`	Ф	Е	э
27	V	ç	х	Sh	Ч	У	н
28	X	W	ю	n`	Ц	Г	ч
29	F	Ž	ф	G	Э	Н	у
30	`	F	ц	X	Й	Х	ш
31			э	F	Я	В	х
32			щ	C	Ё	Ю	оо
33			ь	V	Ю	Ф	в
34				Ch	Ж	Э	я
35					Ъ	Ч	ф
36						Ц	е
37						Ё	ё
38						Щ	ю
39						Ь	щ
40						Ъ	ц
41							ь
42							ъ

Rus tili alifbesida 31 ta tovush- harf va 2 ta ayiruv va yumshatuvchi belgidan iborat. Shundan 10 tasi unli tovushlar, 11 ta jarangli undoshlar, 10 ta jarangsiz tovushlardan tashkil topgan.

Rus tili alifbesidagi harflar

Гласные					Согласные																
а	о	ы	у	э	звонкие	м	н	л	р	й	б	в	г	д	ж	з			ь		
я	ё	и	ю	е	глухие						п	ф	к	т	ш	с	х	ц	ч	щ	ъ

1.2. 2-rasm

Rus tili alifbosidagi tovushlarni o'rgatish metodikasining afzalli tomoni har bir tovush bilan tanishtirganda, yangi o'rgangan harfini yuqorida ko'rsatilgan rasmda tasvirlanga jadvalga solinishidir. Chunki o'quvchilar unli undosh tovushni biologik va fonetik tomondan tahlil qilgan holda topishlari mumkin, lekin jarangli va jarangsiz tovushlarni amaliy ham nazariy ham tushuntirishimiz qiyin bo'ladi. Shuning uchun jadvalga solingan holatda har kuni ko'rib borsa, hech bo'lmaganida ko'z xotirasida qoladi.

Qoraqolpoq tili alifbesidagi harflar

Dawshi	Jūwan					Dawssiz	Únli												
		a	o	u	i			b	v	g	g'	d	j	z	y	l	m	n	ñ
Jiñishke	á					Dawssiz	Únsiz												
		o'	u'	i	e			p	f	k	q	t	sh	s	x	h	c	ch	

1.2. 3- rasm


Qoraqolpoq alifbesida jami 34 ta tovush bo'lib, shundan 9 ta unli va 25 ta undosh tovush mavjud. Yozuvi lotin yozuviga asoslangan. Tovushlarni fonetik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak unliharflar 2 guruhga bo'linadi. Birinchi guruhi juvan deb nomlanib a, o, u, i kiradi. Ikkinchi guruhi jinshke deb nomlanib a', o', u', i, e kiradi. Bunday holatda tasniflanishi shuni ko'rsatadiki, savod o'rgatish jarayonini o'zidayoq unliharflarni xususiyati bilan o'quvchilar tanishadilar, kitobda jadval asosida bergandan so'ng o'qituvchi ham shu talab asosida dars o'tadi. Undosh tovushlari ham bizni

TILSHUNOSLIK

tovushlar singari jarangli jarangsizga bo'linadi. Jarangli tovushlar 14 ta jarangsiz tovushlar esa 11 ta. Jadvalda jarangli tovushlarni jarangsiz jufti bilan tagma- tag yozilgani esa, shu tovushlarni jarangsiz juftini ham bilib olishlariga yordam beradi. Qoraqolpoq tilida 7 ta jarangli undoshning 7 ta jarangsiz jufti bor ekan.

Tojik alifbesida 35 ta harf tovushlar mavjud bo'lib, uning yozuvi krill yozuviga asoslangan. Tojik tiliga asoslangan Alifbe kitobida tovushlarning tavsifi o'zbek alifbe kitobi singari ranglar bilan farqlangan. Kitobda tovushlarning boshqa xususiyati haqida alohida jadvallar berilmagan. Tojik tili alifbesida 10 ta unli va 15 ta undosh tovushlar mavjud.

Qozoq tili alifbesidagi harflar



1.2. 4- rasm

Qozoq tili alifbesida 38 ta tovush 2 ta ayirish va yumshatish belgisi mavjud bo'lib, yozuvi krill yozuviga asoslangan. 38 ta tovushdan 14 tasi unli tovushlar 24 tasi esa undosh tovushlarni tashkil etadi. Qozoq tili alifbosining har bir dars uchun ajratilgan sahifaning pastki qismida ham jadval berilgan bo'lib, jadvalga har o'tilgan yangi harf yozilib boradi. Jadvalda tovushlarni farqlovchi bitta xususiyat aks etgan bo'lib, bu ham tovushlarning unli yoki undoshligi ranglar orqali ifodalangan. Bu jadvalning afzalligi bola kitobni varaqlamay ham o'tilgan harflar ketma- ketligini jadval asosida takrorlab boradi. Bu ham tovushlarni fonetik tahlil qilishga bir buncha qulaylik yaratadi.

Qirg'iz tili alifbesidagi harflar

Аа	Аа	Лл	Лл	Фф	Фф
Бб	Бб	Мм	Мм	Хх	Хх
Вв	Вв	Нн	Нн	Цц	Цц
Гг	Гг	Њн	Њн	Чч	Чч
Дд	Дд	Оо	Оо	Шш	Шш
Ее	Ее	Өө	Өө	Щщ	Щщ
Ёё	Ёё	Пп	Пп	Ъъ	Ъъ
Жж	Жж	Рр	Рр	Ыы	Ыы
Зз	Зз	Сс	Сс	Ьь	Ьь
Ии	Ии	Тт	Тт	Ээ	Ээ
Йй	Йй	Уу	Уу	Юю	Юю
Кк	Кк	Үү	Үү	Яя	Яя

1.2. 5- rasm

Qirg'iz tili alifbesi 34 ta harf, 40 ta tovush, 2 ta shartli belgidan iborat. Yozuvi esa krill yozuviga asoslangan. Qirg'iz alifbosida fonetika bo'limini o'rgatishga bir qancha qulayliklar yaratilgan. Darslar soni harflar soniga emas, tovushlar soniga nisbatan berilgan. Tovushlarning farqli tomonlarini ranglar orqali ifodalagan bo'lib, ranglari faqatgina unli undoshni farqlash uchunгина emas, jarangli va jarangsiz tovushlarga nisbatan ham alohida ranglardan foydalangan. Savod o'rgatish jarayonida unli tovushlar ikki guruhga bo'lib o'rgatiladi, ya'ni qisqa unlilar va cho'zilma unlilarga bo'linadi. Undosh tovushlar ham ikki guruhga bo'linib, qattiq unsuzder, jumshaq unsuzder deb nomlanadi. Qattiq unsuzder ko'k rangda (jarangsiz undoshlar), jumshaq unsuzder yashil rangda (jarangli undoshlar) bilan ifodalangan. Qirg'iz tilida yondoshgan belgilar ham bo'lib ular sariq rangda berilgan. Qirg'iz alifbesining 60-sahifasida tovush va harflarning fonetik xususiyatiga to'liq to'xtalib o'tilgan bo'lib, bu tovushlar haqidagi ilmiy bilimni oshirishga xizmat

Кыска үндүүлөр: а, о, у, ы, ө, ү, э, (е), и.

Созулма үндүүлөр: аа, оо, уу, ээ, өө, үү.

Каткалаң үнсүздөр: к, п, с, т, ф, х, ц, ч, щ, ш.

Жумшак үнсүздөр: б, в, г, д, ж, з, й, л, м, н, ң, р.

Йоттошкон тамгалар: е, ё, ю, я.

Ажыратуу белгиси: ь.

Ичкертуу белгиси: ъ.

qiladi. Alfbening yakunida tovushlar haqidagi bilimlarini xulosalab o'qituvchi uchun ham metodik yordam bo'ladi.

XULOSA

O'zbekistonda o'qitiladigan Alifbe darsliklarida tovush va harflarning o'rgatish ketma ketligiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsam, o'zbek tili va tojik tilida 1-tovushi Oo bilan boshlanadi. Rus, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqolpoq tilida esa Aa tovushi bilan boshlanadi. Tovushlar ketma-ketligi bo'yicha kamdan kam holda bir xil tovush o'rgatiladi. Bunga sabab bu tovushlarni o'rgatish metodikasi va tovushlarning soni, xususiyatiga bog'liq ekanini darsliklarni tahlil qilgan holda guvohi bo'ldim.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda o'qitiladigan tillar o'zbek tiliga bog'liq holda o'rgatilar ekan. Chunki ba'zi harflar shu tildagi davlatning alifbosiga kiritilmagan va tovush- harflarining sonida ham sezirarli farqni ko'rishimiz mumkin. Qoraqolpoq, rus, turkman, qozoq tilidagi alifbe darsligi sahifalarining ostki qismida berilgan fonetik tasnifga asoslangan jadvalni o'zbek alifbe darsligiga ham kiritilsa o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham yaxshi natijalarga erishishida yordam bergan bo'lardi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Sh. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2016.488B
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 80 b.
3. Qosimova K., Matchonova S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyeva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent:Nosir,2009.
4. Nabiyeva D. Zokirova Z. O'zbek tili fonetikasi (O'quv-uslubiy qo'llanma). Andijon 2016-yil
5. Nurmonov A.N. O'zbek tili fonologiyasi.Toshkent. "Fan" 1990-yil
6. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent. "O'qituvchi" 1992-yil
7. Safarova R., Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L., Alifbe
8. Şirinjan Abdulla'yewa, Jumanazar Met'yakubow. Harplyk. Daşkent, 2021
9. М.Умаров. Әлиппе.
10. Sh. Abdinazimov, J.Uspanova,X.Abdijabbarova Álipbe
11. А. Тойчубаева, А. Юнусалиева Алиппе
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qirgiz_tili
13. <https://joqargikenes.uz/uz/1782.html>
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpoq_tili
15. https://uz.wikipedia.org/wiki/tukman_tili
16. https://enc.for.uz/wiki/Qirg%CA%BBiz_tili
17. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tojik_alifbosi
18. https://uz.wikipedia.org/wiki/rus_alifbosi